



RELATIONS OF THE REPUBLIC OF KOREA WITH EUROPEAN COUNTRIES

Sitora Abdukhalilova

Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Korea, Europe, State, European Union, Export, South Korea.

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: The European Union and the Republic of Korea are important trading partners, with Korea being the EU's ninth largest export market for goods and the EU being Korea's third largest export destination. Both countries signed a free trade agreement that entered into force at the end of 2011. In addition, South Korea is the only country in the world to have three agreements covering economy, politics and security since 2020.

KOREYA RESPUBLIKASINING YEVROPA DAVLATLARI BILAN MUNOSABATLARI

Sitora Abduxalilova

Magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Koreya, Yevropa, davlat, Yevropa Ittifoqi, eksport, Janubiy Koreya.

Annotatsiya: Evropa Ittifoqi va Koreya Respublikasi muhim savdo sheriklari bo'lib, Koreya tovarlar uchun Evropa Ittifoqining to'qqizinchi yirik eksport bozori, Evropa Ittifoqi esa Koreyaning uchinchi yirik eksport yo'nalishi hisoblanadi. Ikkala mamlakat ham 2011 yil oxirida kuchga kirgan erkin savdo shartnomasini imzoladilar. Bundan tashqari, Janubiy Koreya 2020 yildan beri iqtisodiyot, siyosat va xavfsizlikni qamrab oluvchi uchta kelishuvga ega bo'lgan dunyodagi yagona mamlakatdir.

ОТНОШЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КОРЕЯ С ЕВРОПЕЙСКИМИ СТРАНАМИ

*Ситора Абдухалилова**студент магистратуры**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Корея, Европа, Государство, Европейский Союз, Экспорт, Южная Корея.

Аннотация: Европейский Союз и Республика Корея являются важными торговыми партнерами, при этом Корея является девятым по величине экспортным рынком для товаров ЕС, а ЕС является третьим по величине экспортным направлением Кореи. Обе страны подписали соглашение о свободной торговле, которое вступило в силу в конце 2011 года. Кроме того, Южная Корея — единственная страна в мире, с которой с 2020 года заключено три соглашения, охватывающих экономику, политику и безопасность.

KIRISH

Hamamizga ma'lumki, Yevropa davlatlari hozirgi kunda ham o'zlarining siyosiy, iqtisodiy jihatdan o'z yetakchiliklarini saqlab kelishmoqda. Shu sababdan boshqa mintaqa davlatlarining Yevropa davlatlari bilan hamkorlikka intilishini kuzatishimiz mumkin. Osiyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan, yetakchi davlatlaridan biri hisoblangan Koreya Respublikasi ham Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan yaqin aloqalarga ega. Bu aloqalar hozirgi kunda ham jadal rivojlanmoqda.

ASOSIY QISM

Koreya Respublikasining Yevropa davlatlari bilan munosabatlarini ikki turga bo'lishimiz mumkin. Bular:

1. YeI doirasida
2. Ikki tomonlama

Bugungi kunda, integratsiyaning yagona, ideal shakli hisoblangan Yevropa Ittifoqi dunyoda YaIM miqdori bo'yicha AQShdan keyin ikkinchi o'rinni egallab kelmoqda. Koreya va YeI o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi esa 80-yillarga to'g'ri keladi. Yangi asrda bu aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. 2010-yilda Koreya va YeI o'rtasida "Strategik sherikchilik to'g'risida" shartnoma imzolandi. Siyosiy, savdo va xavfsizlik sohada hamkorlikni kengaytirish istiqbollari belgilandi. YeIning dunyo bo'yicha 10 ta strategik sheriklari mavud bo'lib, (Osiyoda 4ta) Koreya ham ulardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, 2015-yilda "Erkin savdo to'g'risida" bitim imzolangan bo'lib, savdo to'siqlarini bartaraf etish, tovar va xizmatlar uchun kengaytirilgan,

xavfsiz bozor va investitsiyalar uchun barqaror muhitni shakllantirish ko'zda tutilgan. 2010-2018-yillar oralig'ida YeIning Koreyaga eksporti 77%ga, Koreyaning YeIga eksporti esa 82%ga o'sgan.

Ikki tomonlama munosabatlarda esa, asosan YeIning yetakchi davlatlari hisoblangan Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Italiya bilan bo'lgan munosabatlar sezilarli darajada rivojlanmoqda. Bu jarayonda bu davlatlarning iqtisodiy jihatdan yuksak taraqqiy etgani va G7 lik a'zosi ekanliklari alohida o'ringa ega.

Koreya Respublikasi va Buyuk Britaniya. Bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning rivojlanish tarixi 19-asr oxirlariga borib taqaladi. Dastlab, Choson qirolligi va Buyuk Britaniya o'rtasida 1883-yilda aloqalar o'rnatilgan. 1901-yilda esa Yun Yun Chi Jang boshchiligidagi Choson delegatsiyasi Londonda qabul qilinadi. Mustaqil Koreya Respublikasi tashkil topgach, 1949-yilda diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1950-yil fevral oyida Londonda koreys elchixonasi ish boshladi. 1950-1953-yillardagi "Koreya urushi" davrida Buyuk Britaniya Koreya Respublikasi qo'llab-quvvatladi. 57000 kishilik Buyuk Britaniya harbiylari urush harakatlarida qatnashishgan. 60-yillardan boshlab, ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar jadal rivojlana boshladi. 1970-yilda parlamentlararo hamkorlik yo'lga qo'yildi. 1964-yilda tovar aylanmasi 10 mln\$ tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda 10,5 mlrd\$ni tashkil etdi. 2018-yilda umumiy savdo hajmi 14,6 mlrd\$ ga yetganligi ham aloqalarning jadal rivojlanayotganligidan dalolat beradi. 1986-yildan 2015-yilga qadar bo'lgan davr oralig'ida Koreya davlat rahbarlari va tarmoq idoralari rahbarlarining 21 ta tashrifi, Buyuk Britaniya tomonining 17 tashrifini kuzatishimiz mumkin. Bu tashriflar orasida 1999-yilda Qirolicha Yelizavetta II ning Koreyaga, va Koreyaning 2003-2008-yillardagi prezidenti No Mu Xyonning Buyuk Britaniyaga davlat tashriflari katta ahamiyatga. Bundan tashqari, 1992-yil shahzoda Charlz va malika Diana ham Koreya hukumati tomonidan iliq kutib olingan. Buyuk Britaniya qirollik oilasi vakillarining Koreyaga tashriflari ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Hozirgi kunda ikki mamlakat o'rtasida nafaqat siyosiy, iqtisodiy balki harbiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 2016-yilda ilk qo'shma harbiy mashg'ulotlar o'tkazilgan.

Koreys fuqarolari ham Buyuk Britaniya bilan munosabatlarga ijobiy qarashmoqda. 2014-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 74% Buyuk Britaniya bilan munosabatlarni qo'llab-quvvatlashgan. Faqatgina ishtirokchilarning 14% salbiy fikr bildirgan.

Hozirgi kunda, YeI dan Buyuk Britaniya chiqishi, bu ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni qaytadan tartibga solishni taqazo etmoqda. Lekin Koreya hukumati savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun Buyuk Britaniya munosabatlarni bir maromda saqlashga intilmoqda. 2019-yil Koreya savdo vaziri Yu Myong Xining Londonga tashrifi bu boradagi birinchi qadam bo'ldi. Tashrif davomida Buyuk Britaniya Xalqaro savdo vaziri Liz Truss

va Yu Myong Xi o'rtasida uchrashuv o'tkazilib, "Erkin savdo" to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu shartnoma orqali "Brexit"dan keyin ham ikki mamlakat o'rtasida imtiyozli savdo tartibini saqlab qolish yo'llari belgilandi. 2019-yil davomida imzolangan iqtisodiy loyihalar miqdori 39 mlrd funt-sterlingga o'sib, 89 mlrd funt-sterlinnga yetdi.

Koreya Respublikasi va Germaniya. Bugungi kunda Germaniya harbiy va iqtisodiy jihatdan Yevropada yetakchilardan biri hisoblanadi. Koreya va Germaniya o'rtasidagi dastlabki aloqalar, Choson qirolligi davrida o'rnatilgan. 1883-yilda Choson qirolligi va Germaniya imperiyasi o'rtasida shartnoma dastlabki shartnoma imzolangan. Ikkinchi jahon urushida Germaniyaning mag'lubiyatidan so'ng, Koreya singari bu mamlakat ham ikkiga bo'lindi. 1955-yilda esa, Koreya Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatiladi. 1990-yilda ikki nemis davlatlarining birlashuvidan so'ng, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar yuksak darajada rivojlana boshladi. 2008-yilda o'zaro aloqalarning 125 yilligi nishonlandi.

Koreyaning Germaniya bilan aloqalari boshqa yevropa davlatlariga qaraganda kengroq va mustahkamroqdir. Koreyaning hozirgi prezidenti Mun Chje In 2017-yilda saylovlardagi g'alabasidan so'ng, o'zing dastlabki xorijiy safari ham Germaniyaga bo'lgan edi. Tashrif davomida Mun Chje Inni federal prezident Frank-Valter Shtaynmayer va federal kansler Angela Merkel kutib oldi. 2018-yil Seulda o'tkazilgan qishki olimpiada o'yinlarning ochilishiga Frank-Valter Shtaynmayer va Angela Merkel tashrif buyurishdi. Bundan tashqari xuddi shu yili o'tkazilgan Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvi ham ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Uchrashuv davomida:

- demokratiya va inson huquqlarini mustahkamlash
- o'zaro munosabatlarni rivojlantirish
- G20 doirasida global-iqtisodiy va moliyaviy tizimni rivojlantirish
- iqlim o'zgarishi
- xavfsizlik

sohasida hamkorlik istiqbollari belgilandi. O'zaro savdo aylanmasi ham yildan-yilga o'sib bormoqda. 2014-yilda 21,3 mlrd\$, 2015-yilda 27 mlrd\$, 2018-yilda 30,3 mlrd\$ ni tashkil etdi. Bundan tashqari Koreyada 500ta nemis korxona va firmalari, Germaniyada 155 ta koreys firmalari faoliyat ko'rsatmoqda. 2002-yildan Koreya-Germaniya forumi (jamoat tashkilotlari doirasida) faoliyat ko'rsatmoqda. Germaniya mahsulotlari importi bo'yicha Koreya Osiyoda uchinchi o'rinni egallaydi. 2017-yil G20 samniti doirasida ham ikki mamlakat vakillari raqamli iqtisodiyot, proteksionizmni kamaytirish va texnologiyasida hamkorlikni yuksaltirish borasida kam kelishuvga erishishgan. 1965-yilda "Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Koreya-Germaniya qo'shma qo'mitasi ham tuzilgan bo'lib, hozirda ham o'z faoliyatini yuritmoqda. 1962-2016-yillar

davomida Germaniya Koreyaga 10 mlrd\$ miqdorida investitsiya joylashtirgan. Yaponiya tomonidan Koreyaga texnik qismlar va kimyoviy moddalar eksporti cheklanganidan so'ng, Germaniya va Koreya o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkmlandi. Germaniya kimyoviy moddalarni yetkazib berish bo'yicha Koreya bilan kelishuvga erishdi. Bundan tashqari Germaniya tomoni Koreya yarimorolini yadroviysizlashtirish va ikki koreys davlatini Germaniya namunasida birlashtirish yuzasidan ham Koreya respublikasini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Koreya Respublikasi va Fransiya. Fransuz missionerlari Choson davlati hududiga 1836-yilda kirib kelishgan edi. 1866-yilda fransuzlar tomonidan harbiy hujum ham uyushtirilgan. Koreya Respublikasi tashkil topgach, fransuzlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. "Koreya urushi" vaqtida Fransiya Koreya Respublikasini qo'llab-quvvatladi. Harbiy harakatlarda 3200 nafar fransuz harbiylari ham ishtirok etishdi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomoni xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birlarini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashlaridir. Ayniqsa, bunday holatlar BMT va UNECKO doirasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

2015-2017-yillar davomida Fransiya davlat rahbarlari va tarmoq idoralari rahbarlarining 7ta, Koreya davlat rahbarlari va tarmoq idoralari rahbarlarining 3ta tashriflarini kuzatishimiz mumkin. Bu tashriflar orasida 2016-yil 14-iyundagi Fransiyaning sobiq prezidenti Fransua Olland va Koreya respublikasining 2013-2017-yillardagi prezidenti Pak Kin Xening o'zaro tashriflari ayniqsa ahamiyatlidir. 2011-yilda "Erkin savdo to'g'risida" bitim ham imzolangan. 2014-yilda 1,9 mlrd yevro miqdorida shartnoma imzolangan. Asosiy hamkorlik sohalari aviatsiya, kimyoviy moddalar va metallurgiya hisoblanadi. Koreya fransuz tovarlarining to'rtinchi eng yirik importchisi hisoblanadi. Fransiyaning Koreyadagi umumiy investitsiyasi miqdori 3,5 mlrd yevro tashkil etib, 200 dan fransuz korxonalari ham faoliyat yuritmoqda. 2016-yilda o'zaro munosabatlarning 130yilligi nishonlandi. 7 mlndan ortiq ikki mamlakat fuqarolari tantanalarda faol ishtirok etishdi.

Ta'lim sohasida ham ikki davlat uzoq yillik hamkorlik mavjud. 2018-yilda tayinlangan Koreyaning Fransiya'dagi yangi elchisi, Choy Jung Mu fransuz oliy o'quv yurtlariga tashrif buyurib, texnik ta'limni yuksaltirish bo'yicha dasturlarni imzoladi. Hozirgi kunda, 6500 dan ortiq koreys talabalari Fransiya'da ta'lim olishmoqda. 2016-yildan ikki davlat o'rtasida strategik muloqot dasturi yo'lga qo'yilgan. 2018-yilda bu dasturning 3-samniti bo'lib o'tdi.

Koreys fuqarolari ham o'zaro munosabatlar haqida ijobiy fikrga ega. Jumladan, 2013-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 70% Fransiya bilan aloqalarga hayrixohlik bildirishgan. Bundan tashqari, Fransiya KXDR bilan munosabatlarda Koreya respublikasini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Koreya Respublikasi va Italiya munosabatlari. Italiya ham Choson qirolligi davrida Koreya yarimoroliga kirib keldi. 1884-yil 26-yil ikki davlat o'rtasida dastlabki savdo bitimi

imzolangan. 1956-yil 24-noyabrda Koreya respublikasi va Italiya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1959-yilda Seulda Italiya elchixonasi ish boshladi. 2014-yil ikki mamlakat o'zaro munosabatlarning 130 yilligini nishonlashdi. 1987-yilda tovar aylanmasi 1 mlrd\$ tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda 8,5 mlrd\$ga yetdi. Davlat rahbarlari uchrashuvi ham bu davlatlar orasida tez-tez o'tkazib turilishi munosabatlarning o'ziga xos jihatidir. 2013-yil sobiq prezident va sobiq bosh vazir Pak Kin Xe xonim va Enriko Litta uchrashuvi ham katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Koreyaning hozirgi prezidenti Mun Chje In va Italiyaning sobiq bosh vazirlaridan Paolo Gentelone o'rtasida 2017-yil 20-sentyabrdagi Nyu-Yorkda o'tkazilgan uchrashuv munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishda ijobiy qadam bo'ldi. Uchrashuv davomida yarimoroldagi yadro muammolari, mudofaa va qishloq xo'jaligi sohalarida hamkorlikni kuchaytirish borasida dasturlar qabul qilindi.

Mun Chje In 2018-yil 16-18-oktyabrda rasmiy tashrif bilan Rimda bo'ldi. Munni Italiya prezidenti Serjio Mattarella, bosh vazir Juzeppe Konte kutib olishdi. Uchrashuv davomida:

- 2 tomonlama munosabatlarni strategik sherikchilik darajasiga ko'tarish
- demokratiya va inson huquqlari
- siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohada, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik singari masalalar ko'rib chiqildi.

Mudofaa va texnologiya sohasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, migratsiya va global muammolarni hal qilish masalari ham muhokama qilindi.

Bundan tashqari, Italiya Koreya Respublikasini Koreya yariomorolida tinchlik o'rnatishda va yadroviysizlantirishda qo'lla-quvvatlab kelmoqda. G20 doirasida ham ikki mamlakat o'rtasida yaxshi hamkorlik muhiti shakllangan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Koreya respublikasining yevropa davlatlari munosabatlari ijobiy xarakterga ega. Yuqoridagi 4 davlat esa asosiy hamkor hisoblanadi. O'zaro aloqalarning rivojlanishida esa, bu davlatlarning ikki koreys davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda Koreya respublikasini qo'llab-quvvatlashlari, yadroviysizlashtirishda yakdil ekanligi katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kochetov E. geoiqtisodiyot (jahon iqtisodiy makonini rivojlantirish). M.: bek, 1999 yil.
2. Kochetov E. Globalistika: nazariya, metodologiya va amaliyot. M.: Norma, 2002 Yil.
3. Sidorov A. A. Amerika-Koreya erkin savdo shartnomasi: old shartlar, muammolar, istiqbollor // Moskva universitetining xabarnomasi. 25-seriya. Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati. 2011. № 1. 49-75 betlar.

4. Aggarwal VK., Govella K. Linking trade and security. New York: Springer Science & Business Media, 2010.
5. Aggarwal V.K., Urata S. Bilateral trade agreements in the Asia-Pacific: Origins, evolution, and implications. London: Routledge, 2013.
6. Ahearn R.J. Europe's preferential trade agreements: status, content, and implications. Congressional research service (CRS Report for Congress). Washington, D.C., 2011. March 3. Available at: <http://www.fas.org/sgp/crs/row/R41143.pdf> (accessed: 18.02.2013).
7. Babic B.S. Geo-economics — reality & science // Megatrend Review. 2009. Vol. 6 (1). P. 27-54. Available at: <http://www.megatrendreview.com/files/articles/010/BlagojeBabic.pdf> (accessed: 11.11.2012).